

MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA INTERNET JURNALISTIKA TARAQQIYOTI

Dilnoza Xikmatilla qizi AMINOVA

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

РАЗВИТИЕ ИНТЕРНЕТ-ЖУРНАЛИСТИКИ В КОНТЕКСТЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Дилноза Хикматилла кизи АМИНОВА

Доктор филологических наук (DSc), доцент
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

DEVELOPMENT OF INTERNET JOURNALISM IN THE CONTEXT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION

Dilnoza Khikmatilla qizi AMINOVA

Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

UDC (УО'К, УДК): 070:130.2

Iqtibos keltirish uchun (Для цитирования)

For citation:

Aminova D.X. Madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida internet jurnalistika taraqqiyoti // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 119-133.

<https://doi.org/10.36078/1687764177>

Received: April 11, 2023

Accepted: June 17, 2023

Published: June 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada internet jurnalistika mazmun-mohiyati, uning ilm-fan sifatida shakllanishi va o'z rivojlanishi mobaynida madaniyatlararo kommunikatsiyaning mazmuni hamda miqyosiga ta'siri masalalari keng tahlilga tortilgan. Internet jurnalistikaga nisbatan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari turli manbalar asosida tadqiq etilgan. Suningdek, internet jurnalistikaning ilmiy-nazariy asoslari taraqqiyoti, uning bugungi sifat jihatidan yangi bosqichlari o'rganilgan. Ayniqsa, internet tarmog'i jahon hamjamiyatini yagona virtual makonga birlashtirib, axborot olish va tarqatishning eng tezkor ommaviy vositaga aylantirgani borasida qiziqarli ma'lumotlar ham berilgan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining misli ko'rilmagan darajada rivoji, an'anaviy texnika o'rnnini raqamli format egallashi jurnalistikaning taraqqiyotiga bevosita ijobjiy ta'sir ko'rsatishi, axborotni tez, sifatli tarzda to'plash, uni qayta ishlash, tarqatish, ayniqsa, ovoz, matn, foto va video hamohangligida auditoriyaga taqdim etishning yangi ko'rinishlari ilmiy-nazariy jihatdan dalillangan. Bugungi kunda keng qo'llanilayotgan "interfaol jurnalistika", "noan'anaviy OAV" atamalari bilan birga, "onlayn jurnalistika", "elektron jurnalistika", "internet jurnalistika" kabi istilohlar xususida ham ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, maqolada G'arb va Sharq tadqiqotchilari internet jurnalistikasi atamasiga nisbatan "online journalism", rus nazariyotchilari "tarmoq jurnalistikasi" yoki "internet jurnalistikasi" hamda mahalliy olimlar "onlayn" yoki "internet jurnalistika" atamalarini qo'llagani aniqlangan.

Kalit so'zlar: internet jurnalistika; "interfaol jurnalistika"; "onlayn jurnalistika"; "elektron jurnalistika"; "tarmoq jurnalistikasi"; ovoz; matn; foto; video; raqamli format.

Аннотация. В статье анализируются содержание и сущность интернет-журналистики, ее становление как науки, влияние на содержание и масштабы межкультурной коммуникации в процессе ее развития. На основе различных источников исследованы научно-теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых на интернет-журналистику. Также изучено развитие научно-теоретических основ интернет-журналистики, ее сегодняшние новые этапы. В частности, была дана информация о том, что Интернет объединил мировое сообщество в единое виртуальное пространство и превратил его в самое быстрое массовое средство получения и распространения информации. Беспредецентное развитие информационных и коммуникационных технологий, замена традиционных приемов цифровым форматом оказывает прямое положительное влияние на развитие журналистики, оперативный и качественный сбор информации, ее обработки, распространения. В статье теоретически обоснованы подача аудио-, фото- и видеоматериалов. Помимо широко используемых сегодня терминов «интерактивная журналистика» и «нетрадиционные средства массовой информации», также представлена информация по таким терминам, как «онлайн-журналистика», «электронная журналистика», «интернет-журналистика». При этом установлено, что западные и восточные исследователи используют термин «онлайн-журналистика», российские теоретики используют термины «сетевая журналистика», или «интернет-журналистика», а отечественные ученые используют термины «онлайн» или «интернет-журналистика».

Ключевые слова: интернет-журналистика; интерактивная журналистика; онлайн-журналистика; электронная журналистика; сетевая журналистика; звук; текст; фото; видео; цифровой формат.

Abstract. This article analyzes in detail the content and essence of Internet journalism, its formation as a science, the impact on the content and scope of intercultural communication in the process of its development. Based on various sources, the scientific and theoretical views of foreign and domestic scientists on Internet journalism are investigated. The development of the scientific and theoretical foundations of Internet journalism, its current new stages, has also been studied. In particular, interesting information was given that the Internet has united the world community into a single virtual space and turned it into the fastest mass medium for receiving and disseminating information. The unprecedented development of information and communication technologies, the replacement of traditional methods with a digital format, has a direct positive impact on the development of journalism, the prompt and high-quality collection of information, its processing, distribution, especially the presentation of audio, photo and video materials is theoretically justified. In addition to the terms "interactive journalism" and "non-traditional media" that are widely used today, information is also provided on such terms as "online journalism", "electronic journalism", "Internet journalism". At the same time, the article found that Western and Eastern researchers use the term "online journalism", Russian theorists use the terms "network journalism" or "Internet journalism", and domestic scientists use the terms "online" or "Internet journalism".

Keywords: Internet journalism; "interactive journalism"; "online journalism"; "electronic journalism"; "network journalism"; sound; text; photo; video; digital format.

Internetning rivojlanishi natijasida an'anaviy jurnalistikaning funksiyalari, ommaviy axborot vositalarining o'mni va roli o'zgardi. Bu o'z navbatida, yangi ijtimoiy-madaniy fenomen, ya'ni internet jurnalistikasini yuzaga kelishiga olib keldi (30, 247). Natijada yangi sohani chuqur o'rganish va tadqiq etish masalasi ommaviy kommunikatsiya va jurnalistika nazariyasining dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Internet jurnalistikasining nazariy-metodologik asoslari qator xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning mazkur masalaga yondashuvlari turlicha. Masalan, jurnalist, bloger, Birmingham (Birmingem) universiteti professori Paul Bredshou (8, 368) ham o'z ishida "onlayn jurnalistika" terminidan foydalanadi. Uning fikricha, "on-line" yoki internet jurnalistikasi bu — internet tarmog'idagi elektron nashrlardir. Ular bosma nashrlarning elektron nusxasi, sof internet nashrlar yoki o'zining bosma ko'rinishga ham ega bo'lgan internet nashrlarga aytildi.

Shuningdek, J. Jons, L. Solter (16, 301), L. Fernando (26, 176), A. Firdavs (4, 325), D. Xayder, J. Tomas (16, 367) lar tadqiqotlarida "raqamli jurnalistika" istilohidan foydalanadilar. Raqamli jurnalistika atamasi juda ham keng tushuncha bo'lib, u nafaqat onlayn jurnalistikasini, balki an'anaviy OAVning raqamli texnologiyalarni qo'llashini ham anglatadi.

Yana bir qator g'arblik tadqiqotchilardan T. Rey (36, 266), D. A. Kreyg (11, 179), M. Deuze (12), D. Dimitrova (13) "onlayn jurnalistika"; A. Sengupta, V. Sexgal (1, 272) "elektron jurnalistika"; A. Kumar, E. Bull (5, 296) esa "multimediaviy jurnalistika" atamalaridan keng foydalanganlar. Shu o'rinda "multimediaviy jurnalistika" o'zi nima va nimalarga asoslanadi? degan savolga Avstraliyaning Dikin universiteti, San'at fakulteti jurnalistika yo'nalishi katta o'qituvchisi Stiven Kuinn shunday ta'rif keltiradi: "Multimediaviy jurnalistika" bu — audio, foto, matn materiallari va interaktivlikning birikmasidir" (1, 300).

Konvergent jurnalistika va konvergensiya bo'yicha muloqot kitobi muallifi S. Kuinn tomonidan keltirilgan yuqoridagi ta'rif tadqiqotchilar orasida ba'zi tushunmovchiliklarni keltirib chiqargan. Masalan, ba'zi olimlar internet jurnalistika va multimediaviy jurnalistikani teng, deb hisoblaydilar. Vaholanki, internet jurnalistikasi turli belgili tizim birikmalaridan holi, faqat matndan iborat bo'lishi mumkin, multimedia esa bu o'rinda internet jurnalistikaning tarkibiy qismiga aylanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, G'arb va Sharq tadqiqotchilari internet jurnalistikasi atamasiga nisbatan "online journalism", rus nazariyotchilari "tarmoq jurnalistikasi" yoki "internet jurnalistikasi" hamda mahalliy olimlar "onlayn" yoki "internet jurnalistika" atamalarini qo'llamoqdalar. Internet resurslar va hatto, OAVning internet muqobillarini hamma vaqt ham Internet OAVga taalluqli bo'lgan, deya olmaymiz. Bugungi internet nashrlarning ilk ko'rinishlari — elektron e'lonlar taxtalari (VBS) va yangiliklar guruhlari (Newsgroups) bo'lgan. Ular internetning ilk yillarda paydo bo'lib, mavzusiga ko'ra taqsimlangan va vaqtiga vaqtiga bilan yangilab turilgan. Keyinchalik Internet OAV spektri g'ayrioddiy tarzda

kengaydi va internetda an'anaviy media-tuzilmalar hamda o'ziga xos tarmoqli tizimlar ajralib chiqsa boshladi.

AQShda birinchi elektron gazeta 1990-yilda paydo bo'lib, "The Electronic Club" deb nomlangan. Shundan so'ng ommaviy nashrlarning elektron namunalarini yaratish borasida haqiqiy "portlash" yuz berdi (The Wall Street Journal, Los Angeles Times, etc.). Raqamlarga ko'ra, agar 1995-yilning boshida AQShda elektron gazetalar soni 100 ta bo'lgan bo'lsa, 1996-yil boshida ularning soni 815 taga yetadi, 1996-yil o'rtalarida esa 1115 ta bo'lgan. 1999-yilda *AJRNewslink* kompaniyasining ma'lumotlar bazasida 4925 ta tarmoq gazetalari bor edi. Ular orasida faqatgina elektron shakldagi nashrlar kattagina qismni tashkil qildi. Oradan hech qancha vaqt o'tmasdan jurnallarning elektron ko'rinishlari (Businessweek, Editor va Publisher va h.k.), axborot agentliklari, teleradiokompaniyalarning saytlari yaratila boshlandi. Bosma OAVning elektron namunalari teleradiokompaniyalarning internet loyihalariga nisbatan ancha muvaffaqiyat qozondi (23, 23–24).

Dublin universiteti professorlari Yevgenia Siapera va Andreas Veglislar tahriri ostida chop etilgan "Global onlayn jurnalistika bo'yicha ma'lumotnomasi" kitobining "Kirish: Onlayn jurnalistika evolyutsiyasi" qismida "Qidiruv natijalariga ko'ra "onlayn jurnalistika" kalit so'zi Google Scholarda 30000dan ziyod bo'lsa, Google Booksda "onlayn jurnalistika" nomli 2500 ta kitob mavjudligi qayd etilgan". Bu shundan dalolat beradiki, onlayn jurnalistika sohasiga oid tadqiqotlarning keskin ko'payishi natijasida uni yakdil xulosalash va tasniflash masalasida ba'zi ixtiloflar yuzaga kelmoqda" (34, 5–6), deb qayd etadi mualliflar.

Aytish kerakki, internet jurnalistikasi o'zining ilk shakllanish pallasida ba'zi tadqiqotchilar tomonidan faqat texnologik jihatdan tadqiq qilingan bo'lsa, bugunga kelib fanlararo ilmiy muammo darajasida o'rganilmoqda. San Andres universiteti professori Yevgenia Michelsteyn hamda Nordestern universiteti professori Pablo Boskovski (28, 562–586) lar tomonidan 2009- va 2010-yillarda onlayn jurnalistikating hajmi va xilma-xilligidan kelib chiqib foydalanish xususida ikkita maqola chop etiladi. Mazkur maqolalarda onlayn jurnalistika sohasida chuqur o'rganilmagan qirralar hali ko'pligi alohida e'tirof etiladi. Ispaniyalik olim J. Dias Nosi (15, 253) onlayn jurnalistika tarixi va onlayn yangiliklar, medianing internetdagi o'rni, onlayn jurnalistika modellari tahlilini amalga oshirib, internet jurnalistikaka nazariyasini boyitadi.

Osloning Metropoliten universiteti falsafa doktori Stin Stinsonning "Kelajakka qaytish — onlayn jurnalistika innovatsiya, transformatsiya va tajriba sifatida" (35, 320–321) nomli dissertatsiyasi mazkur yo'nalish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi manbadir. Uning 2011-yilda chop etilgan "Onlayn jurnalistika va yangi texnologiyalarning va'dalari. Tanqidiy nazar va bashorat" sarlavhali ilmiy-tanqidiy maqolasida esa yangi medianing uchta muhim xususiyatlari bo'lgan gipermatnlik, interfaollik va multimedialiyligini o'zida aks etuvchi yangi jurnalistikating texnologik jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, S. Stinson onlayn jurnalistikada ba'zi kamchiliklar

mavjudligini e'tiborga olib, sohani taraqqiy ettirish uchun quyidagi oltita taklifni ilgari suradi, ya'ni:

- onlayn jurnalistika tadqiqotlarini kontekst nuqtayi nazaridan kengaytirish;
- onlayn jurnalistika tadqiqotlari o'zaro o'zgaruvchan va turli talqinli nazariy konsepsiyalarga boyligini hisobga olib, konsepsiyalashuvni biroz kuchaytirish;
- internet jurnalistikani diversifikatsiyalash (keng qamrovli qilish);
- sohaga oid tadqiqotlarda matnning ustunlik jihatini keng yoritish;
- nazariy-metodologik yondashuvlarni kuchaytirish;
- tadqiqotlarda, asosan, kontent tahlil, sharh va intervyu ustunlik qilishi bois kontent tahlil onlayn jurnalistikaga oid qimmatli matnlar bilan boyitilishi zarur” (35, 320–321).

S. Stinson “onlayn jurnalistika tadqiqotlarini kontekst nuqtayi nazaridan kengaytirish zarur”, “konsepsiyalashuvni biroz kuchaytirish muhim” degan fikrlarini to‘g‘ri, deb hisoblaymiz. “Onlayn jurnalistika tadqiqotlarida metodologik yetishmovchiliklar mavjud” degan fikriga to‘liq qo‘silib bo‘lmaydi. Chunki uning keltirgan ma'lumotlari asosan 2009-yilgacha bo‘lgan davrga tegishli. Undan keyin ham bu borada qator yangi tadqiqotlar yaratildi. Xususan, professor A. Kalmikov va L. Koxanova (19, 370) larning 2018-yilda chop etilgan “Internet jurnalistikaning nazariy asoslari” nomli kitobida internet OAV tadqiqotlari metodologiyasi ancha izchil o‘rganilgan va yangicha ilmiy qarashlar hisobiga boyitilgan.

O‘zbekiston, Buyuk Britaniya va Xitoy internet jurnalistikasi taraqqiyoti bosqichlarini qiyoslaydigan bo‘lsak, ular quyidagicha:

O‘zbekistonda 1995-yil 29-aprelda .uz domeni ro‘yxatga olingan.

- 1996–2002-yillarda O‘zbekistonda ilk marotaba UzReport.com nomli internet resursi ishga tushadi. Natijada asta-sekin bosma va elektron OAV ommalashadi;
- 2007-yildan boshlab sof internet nashrlar yuzaga keladi va O‘zbekistonda internet OAVning qonunchilik bazasi shakllanadi;
- 2007-yildan hozirga qadar .uz zonasini doirasidagi faol domen nomlari soni 29,7 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi AKT vazirligi (hozirda “O‘zbekiston Respublikasi Raqamlı texnologiyalar vazirligi”) matbuot kotibi taqdim etgan ma'lumotlarga ko‘ra, 2020-yilning dekabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22,1 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 19 million kishini tashkil qilmoqda (37). Uzdaily.uzning 2021-yil 20-fevraldagi taqdim etgan ma'lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston internetga ulanish ko‘rsatkichi bo‘yicha jahonning umumiyligi reytingida 94-o‘rinni egallagan.

Buyuk Britaniyada 1985-yildan to hozirga qadar .uk domeni ishlab kelmoqda. Onlayn jurnalistika taraqqiyoti quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

- 1994-yilda birinchi bo‘lib “The Daily Telegraph”, so‘ng “Guardian”, “Observer” kabi gazetalarining saytlari ishga tushadi;
- 2001-yilda eng ko‘p tashrif buyuriladigan “guardian.co.uk” sayti o‘z faoliyatini boshlaydi;
- 2006-yildan BT Vision xizmati doirasida Freeview raqamli platformalar va 2007-yilda Channelflip.com telestansiyasi ishga tushadi;
- 2009–2011-yillarda internet reklama jadal rivojlanadi;
- 2012–2020-yillarda mamlakat an’naviy eshittirishlardan voz kechib, butunlay raqamli tizimga o‘tadi hamda 500 ta radiostansiya yagona internet tizimiga ulanadi. Internet foydalanuvchilar 2010-yilda 82,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda ular 62 091 419 — 94,8 % ga yetdi (22).

Xitoyda 1990-yilda .cn domeni ro‘yxatga olingan. Internet jurnalistikasi taraqqiyotidagi muhim bosqichlar:

- 1993-yil 6-dekabrda “Xanchjou” gazetasining elektron shakli Xitoyning ilk Internet OAV namunasi sifatida o‘z faoliyatini boshlaydi;
- 1996-yilga kelib Xitoyda bosma OAV birin-ketin onlayn shaklga o‘tadi (17);
- 2000–2020-yillarda barcha Xitoy an’naviy OAV o‘z saytlariga ega bo‘ladi;
- 2020-yilning birinchi choragida global tarmoq foydalanuvchilarining soni 903,59 million kishiga yetdi. Internetdan foydalanishning eng ommabop vositalari smartfonlar 99,3 %, shaxsiy kompyuterlar 42,7 %, noutbuklar 35,1 % va planshetlar 29 % ni tashkil etadi (21).

Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy media” atamasidan tashqari “yangi media”, “interaktiv media”, “fuqarolik media”, “Web 2.0 loyihalari” istilohlari uchraydi. Belorussiya davlat universiteti olimi A.A. Gradyushko ijtimoiy mediani quydagicha tasniflaydi:

- internet forumlar;
- bloglar, mikrobloglar (Blogger, LiveInternet, Twitter, Jaiku);
- ijtimoiy tarmoqlar (“VKontakte”, “Odnoklassniki”, Facebook);
- ma’lumotlar bilan almashinuv xizmati (YouTube, Flickr);
- ijtimoiy ma’lumotlar bazasi (LinkedIn, Friendfeed);
- onlayn o‘yinlar (Second Life, World of Warcraft);
- yangilik yetkazuvchi ijtimoiy saytlar (Habrahabr);
- boshqa ijtimoiy resurslar (Pinterest va boshq.) (10, 70), deb ta’kidlaydi.

Undan farqli o‘laroq, o‘zbekistonlik tadqiqotchilardan B. S. Alimov mavjud ijtimoiy tarmoqlarni ularning turlariga qarab quydagicha guruhlashtiradi:

- eng ommabop ijtimoiy tarmoqlar (“Facebook”, “My Space”, “VKontakte”);
- real vaqt rejimida Internet foydalanuvchilar o‘rtasida xabar almashish tarmoqlari (“Skype”, “ICQ”, “MSN Messenger”, “WhatsApp”);

- bir nechta foydalanuvchilarning o‘zaro bog‘lanib, real vaqt rejimida muloqotga kirishishlariga xizmat qiluvchi Internet-chatlar;
- qiziqarli va dolzarb mavzularni olib chiqib, ularni sharhlash va muhokama qilish imkoniyatini beruvchi Internet-forumlar;
- ayrim foydalanuvchi (blogerlar)ning shaxsiy onlayn-jurnallarni tashkil etuvchi veb-bloglar;
- shaxsiy video materiallarni bepul asosda joylashtirib borish imkoniyatini beruvchi Internet-xostlar (“You Tube”) kiradi (2, 84–85).

XXI asrda internet dunyoning istalgan nuqtasida turli madaniyat vakillari bilan interfaol muloqot qilish imkoniyatini yaratib berdi. Bu bir tomondan “ijtimoiy tarmoqlar orqali xorij fuqarolari bilan jahonda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalar yuzasidan axborot almashishda muayyan xalq madaniyati uchun ijobjiy ta’sir o‘tkazsa, ikkinchi tarafdan, internet orqali tarqatilayotgan ratsizm, ksenofobiya, millatlararo to‘qnashuvlar kabi salbiy xurujlar ham madaniyatlararo kommunikatsiyaga noto‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi” (9, 13), deydi Perm universiteti dotsenti S. Gasumova.

Internet OAV madaniyatlararo kommunikatsiyani amalgaloshirishda bir qator qulayliklarga egaligini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, turli madaniyat vakillaridan tarkib topuvchi “yeguruhlar”dan foydalanish, muloqotning on-line shaklida bo‘lishi, munozarali klublar hamda masofa, vaqt va makondan qat’i nazar turli madaniyat vakillarining Web-konferensiyalarini tashkil etishi shular jumlasidandir (26, 32). Internet makoni zamonaviy jamiyat, xususan, yangi shakl va vositalar orqali insonlarning o‘zaro hamfikrligini belgilab beruvchi zamonaviy madaniyat qismi hisoblanadi. Internet vaqt, makon, madaniy hamda milliy chegaralarni yo‘qolishini hisobga olgan holda, yangi axborot texnologiyalari asosida o‘zaro madaniy muloqotning samarali boshqaruvini ta’minlashi shak-shubhasizdir.

Internet jurnalistika sohasida G‘arb olimlari bilan bir qatorda rus tadqiqotchilari ham qator izlanishlar olib borganliklarini kuzatish mumkin. Mordova universiteti dotsenti O.Igoshina “Ommaviy kommunikatsiya tizimida zamonaviy internet jurnalistikasi” sarlavhali maqolasida shunday fikrlarni keltiradi: “Internet jurnalistikasi bu — fenomen emas, balki faktidir... Endi internet foydalanuvchisi nafaqat biror maqolani o‘qish, balki unga o‘z fikrini bildirib, mavzu yuzasidan tug‘ilgan savollarga nashrning avvalgi sonlariga mashaqqatsiz murojaat qilish imkoniyatiga ega (3, 167–172). Qolaversa, elektron OAV turlari an‘anaviy OAVga qaraganda ancha hamyonbop. Aynan shu sababli ham mass-medianing asosiy funksiyalaridan biri bo‘lgan axborot va ma’lumotni qulay va tez taqdim etish masalasi internet OAV uchun eng dolzarb ahamiyatga ega” (6). Uning fikricha, an‘anaviy OAVning barcha turlarini o‘zida mujassam etgan rasm, video hamda audio fayllar maqolaga to‘liq biriktirilishi natijasida auditoriya internetda berilgan axborotni batafsil tushungan holda qabul qiladi va onlayn jurnalistikaning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan multimediaviylikni ifoda etadi.

O. Igoshinaning “Internet jurnalistikasi bu — fenomen emas, balki faktidir” (7), degan fikriga to‘liq qo‘silib bo‘lmaydi. Sababi

internet jurnalistikasi ma'lum taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganligi, o'ziga xos rivojlanish tendensiyalariga ega ekanligi singari omillar mavjudligining o'zi uning fakt yoki faktor degan baho uchun juda torlik qilishini alohida ta'kidlashni istar edik.

Rossiya Oliy iqtisodiyot maktabining dotsenti Y. N. Ivanova "internet jurnalistikasining o'ziga xosligi sabab an'anaviy OAV mazmun-mohiyatini shunchaki internetga ko'chirishdan iborat emasligini ta'kidlab, uning natijasida professional media va amaliy yangi uslublarning ko'p bosqichli konvergensiysi hamda "fuqarolik jurnalistika"sining yuzaga kelishini e'tirof etadi. Tadqiqotchi fikricha, unda "omma muhim o'ringa ega bo'lib, axborotning turli shakllari, xususan, yangiliklarni yig'ish, tahlil qilish va auditoriyaga yetkazish jarayonida faol ishtirok etadi" (18, 3).

A. Matyakubov o'zining "O'zbekiston OAV o'zgarishlariga internet jurnalistikaning ta'siri" sarlavhali maqolasida internet tomonidan taqdim etilayotgan yangi texnik imkoniyatlar axborotni yig'ish, toplash, tarqatish va saqlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, uni muallif nafaqat tarmoq, balki an'anaviy OAVning sifat jihatidan yangi darajasi, ularning yangi holatga o'tish transformatsiyasi" (27, 100), deb hisoblaydi. Internet, shu bilan birga, an'anaviy OAVning o'ziga xos, virtual shaklini yaratish barobarida, axborot bozorida ularning o'rmini keskin o'zgarishiga ham olib kelmoqda, deya baholaydi. Internet tarmog'i o'zining barcha ko'rinishlarida OAVning yangi turini shakllantiruvchi ulkan media makon hisoblanmoqda. Kun sayin axborot jamiyat kengayayotgan sharoitda an'anaviy OAVga qaraganda Internet OAVning dolzarblashuv jarayoni avj olmoqda. Bu esa virtual olam haqidagi yangi tadqiqotlar yaratilishiga hamda muloqot qilishning o'ziga xos shakl va uslublarining namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

Olima N. Qosimova esa internet OAVning muhim bir jihatiga e'tibor qaratib, "bosma OAVning elektron nashrlari va umuman onlayn jurnalistika doimiy yangilanib turishni taqozo etadi, bunda axborotlar har soatda, hatto, har daqiqada o'zgarishi mumkinligini qayd etadi. Bu o'rinda u "endi aniq bir kun voqealarini emas, balki aniq bitta tadbirning, voqeanning borishini tezkor yoritish" (23, 104) ni nazarda tutadi. Uning fikricha, "bunday dolzarblikning uchta imkoniyati mavjud:

- 1) erkin yangilanish — material tayyor bo'lishiga qarab yangilanadi;
- 2) belgilangan davriylik asosida yangilanish — sayt, aytaylik, kuniga, yoki haftada bir marta yangilanadi;
- 3) surunkali yangilanish — xabar va yangiliklar kelib tushishiga qarab saytda joylashtirib boriladi".

Internet va axborot texnologiyalarining taraqqiyoti an'anaviy mass-media modifikatsiyasi va transformatsiya jarayonlarini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda "bugun media landshaftini o'zgartirayotgan talablar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Buni, bir tomonidan, global tarmoq axborotni yig'ish, saqlash va tarqatish uchun yangi ochiq makon fuqarolik jamiyat taraqqiy etishida muhim omil sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan, axborot kommunikativ muhit

sifatida shakllangan internet infratuzilmasi telekommunikatsiya tizimlari, axborot texnologiyalari, turli kontent ilovalarga ega bo‘lgan axborot resurslaridan tarkib topganligi bilan izohlanadi. Uchinchi jihat esa tarmoqdagi yangi kommunikatsiya va axborot texnologiyalari vaqt va makon chegaralarini butunlay o‘zgartirib, kishilar o‘rtasida real vaqt oralig‘ida muloqot qilish imkonini yaratib berayotganidan dalolatdir” (20, 331), deydi rossiyalik professor M. N. Kim.

Haqiqatan ham, internet tarmog‘i jahon OAV tizimiga misli ko‘rilmagan darajada ta’sir o‘tkazdi. Buning oqibatida multimedaviylik, raqamlashuv hamda konvergent jarayonlar integratsiyasining ommalashuvi yuzaga keldi. Endilikda an’naviylikdan onlaysiz jarayonlar sari harakatlanish tendensiyasi qaror topmoqda. Internet jurnalistikaning ilm-fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti bir necha bosqichlarni bosib o‘tib, o‘z rivojlanishi mobaynida madaniyatlararo kommunikatsiyaning mazmuni va miqyosiga quyidagicha ta’sir o‘tkazdi:

birinchi bosqich (1993–2007 yy.) da — internet jurnalistika nazariyasi shakllanib, o‘sha davrdagi madaniyatlararo kommunikatsiya mavzusi axborot mazmunida yoritildi;

ikkinchi bosqich (2007–2010 yy.) da — internet jurnalistika nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar soni oshib, ilmiy izlanishlar sifati o‘zgardi. Bunda, internet OAVning texnik va texnologik imkoniyatlariga diqqat qaratildi. Shu sababli internet OAVning madaniyatlararo kommunikatsiya mavzusidagi chiqishlarida texnologik omillar, ya’ni interfaollik, gipermatnlilik ustunlik qilib, multimediadidan foydalanish boshlandi;

uchinchi bosqich (2010–2015 yy.) da — internet OAV fenomeni va ijtimoiy salohiyati yuzasidan olimlar o‘rtasida bahs-munozaralar faollashdi va ilmiy mакtablar shakllanishi kuzatildi. Ushbu munozaralar esa madaniyatlararo kommunikatsiya mavzusini internet OAVda yoritishda multimedia ta’sirining yanada kuchayganini ko‘rsatdi;

hozirgi bosqichda (2015 yildan boshlab) — internet jurnalistika nazariyasi fanlararo yondashuv asosida taraqqiy etishi kuzatildi. Bu, o‘z navbatida, internet OAVning madaniyatlararo kommunikatsiya mavzusini yoritishdagi ichki ixtisoslashuv tendensiyasini keltirib chiqardi.

Tadqiqotchi D. Rashidova internet OAVning “media landshafti” mavjudligini e’tirof etgan holda ularni an’naviy nashrlarning elektron ko‘rinishi, sof internet nashrlar va shaxsiy bloglarga ajratadi” (31, 55). Uning fikricha, “internetda OAV ikki guruhgaga bo‘linadi:

- bosma va elektron OAV (“PV.uz”, “mtrk.uz”);
- sof internet nashrlar, an’naviy OAVda o‘z originaliga ega bo‘limgan axborot xizmatlari va portallari (“Gazeta.uz”, “Press-uz.info”, “Security.uz”)” (32, 42). Mutaxassislar uni ko‘pincha “gibrid” deb atab, unga original nusxaning to‘liq internetga moslashtirilgan shakli sifatida qaraydilar.

Olima N. Muratova bunday bo‘linishni klassik hisoblab, internetdagi OAV faoliyatini tahlil qilgan tadqiqotchilar ham mazkur masalada yakdil ekanliklarini e’tirof etadi. Biroq internet milliy

segmenti xususiyatlaridan kelib chiqib, uni uchinchi bir guruh bilan to‘ldirish zaruratini qayd etib, “ushbu guruhga internetga chiqqungacha qadar o‘z axborot tarqatish kanaliga ega bo‘lmagan va analogli ko‘rinishda axborotni boshqa OAV orqali taqdim etgan axborot agentliklari veb-resurslarini kiritish” (29, 18) joizligini ta’kidlaydi. N. Muratovaning axborot agentliklari veb-resurslarini uchinchi guruhga ajratish kerak, degan fikriga qisman qo‘shilgan holda, uni alohida guruh sifatida tadqiq etish lozim, deb o‘yaymiz. Boisi, axborot agentliklar veb-resurslari yetakchi xorijiy tillar soni ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ularda mamlakatimiz hayoti va xorij xabarları o‘zbek tilidan tashqari BMTning barcha rasmiy tillarida beriladi. Vaholanki, qolganlari faqatgina ingliz tili bilan chegaralangan.

Ko‘pgina mutaxassislar OAVning mazkur turini odatiy yoki an’naviy ko‘rinishlari bo‘lmish matbuot, radio, TVga qarama-qarshi qo‘yib, “noan’naviy” deya izohlaydi. Masalan, “filologiya fanlari nomzodi D. Rashidova: “an’naviy jurnalistika ... jurnalist va omma o‘rtasidagi maksimal hamkorlikka tayangan interfaol jurnalistikaga o‘mini bo‘shatib bermoqda” (33, 5) deb yozgan edi. Shuningdek, “yangi sharoitdagi axborotning mohiyati, shuningdek, global tarmoq xususiyatlarini ochib berishda tadqiqotchi quyidagi fikrni keltiradi: “Internet an’naviy OAVga xos bo‘lgan jami xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi, u tezkor, rang-barang ommaviy axboriy mahsulotni tarqatish mexanizmidir, ammo shunga qaramay, uni matbuot, radio va TV bilan bir xil deb bo‘lmaydi” (33, 5). Uning farqi ko‘pincha “interfaol jurnalistika”, “noan’naviy OAV” atamalarini qo‘llashda uchraydi” (29, 6–7).

Bugunga kelib “interfaol jurnalistika”, “noan’naviy OAV” atamalari bilan birga, “onlayn jurnalistika”, “elektron jurnalistika”, “internet jurnalistika” kabi istilohlar keng qo‘llanilmoqda.

Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan davrda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti internet radio, internet televideniye, raqamli televideniye kabi media tarmoqlar shakllanishiga olib keldi. Internet jurnalistikaga bo‘lgan qiziqish, talab va ehtiyojlarning yanada ortishiga sabab bo‘ldi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, XX asrning 90-yillarida dunyoning aksar mamlakatlarida an’naviy OAVning dastlabki veb ko‘rinishlari hamda texnik jihatdan matnli, vizual va audiovizual elementlarni o‘zida mujassam etgan Internet OAVning paydo bo‘lish tendensiyasi yuzaga kelgan;

ikkinchidan, 1996-yildan boshlab O‘zbekiston onlayn jurnalistika shakllanib, bir necha taraqqiyot bosqichlari (1997–1999-yillar; 2001–2002-yillar; 2003–2005-yillar; 2006–2008-yillar; 2015–2017-yillar; 2017–2021-yillar)ni bosib o‘tgan. Ayniqsa, 2002-yillarning boshlariga kelib asta-sekin bosma nashrlarning veb-sahifalari shakllanib, asosan gazeta va jurnallarda chiqqan materiallar qayta nashr etiladi. 2007-yildan boshlab sof internet nashrlar o‘z faoliyatini boshlaydi va O‘zbekistonda internet OAVning qonunchilik bazasi shakllanadi. 2010–2021-yillar mobaynida esa respublikaning

yetakchi internet OAV sonining keskin oshishi, ularning faoliyat ko‘lami, axborotlarni taqdim etish tezligi, ommabopligi, qulayligi hamda foydalanuvchilar sonining yuqoriligi bilan ajraladi;

uchinchidan, Buyuk Britaniyada internet jurnalistika taraqqiyoti 1994-yildan bir qator taniqli gazetalarining saytlari ishga tushishi bilan boshlangan. 2006-yildan esa mamlakatda raqamli platformalar, 2009–2011-yillarda internet reklama, 2012–2020-yillarda mamlakat an'anaviy eshitirishlardan voz kechib, butunlay raqamli tizimga o‘tishi hamda 500 ta radiostansiyalar yagona internet tizimiga ulanishi kuzatiladi;

to‘rtinchidan, Xitoyda onlayn jurnalistika taraqqiyoti 1990-yildan .cn domeni ro‘yxatga olingan davrdan boshlanib, 1993-yildan mamlakatning ilk elektron gazeta namunalari paydo bo‘lib, 1996-yilga kelib Xitoyda bosma OAV birin-ketin onlayn shaklga o‘tadi. 2000-yillar boshidan to hozirgi kunga qadar barcha Xitoy an'anaviy OAV o‘z saytlariga ega bo‘ldi;

beshinchidan, internet jurnalistika taraqqiyoti turli xalqlar o‘rtasida madaniyatlararo kommunikatsiyani shakllantirib, dastlab internet OAVda O‘zbekiston, Xitoy va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning madaniyatiga oid umumiy ma’lumotlar, ularning ramzlarini ifoda etuvchi turli iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy axborotlar joylangan bo‘lsa, keyinchalik jahon miqyosida xalqlarning millatlararo va madaniyatlararo muloqotiga doir turli bahslarni keltirib chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aditya Sengupta. Electronic Journalism: Principles and Practice. — Authorpress; 1 edition, 2006. — 300 p; Vivek Sehgal. Editing for Print and Electronic Media: Trends, Ethics and Laws. — Cyber Tech Publications, 2008. — 272 p.
2. Алимов Б. Жаҳон медиа маконида мамлакат имижини шакллантириш имкониятлари ва журналистикада маҳорат масалалари. Ахборот хизматлари ходимлари, ОАВ вакиллари, журналистика факультетларида таҳсил олаётган талабалар учун қўлланма. — Т, 2015. — Б. 84–85.
3. Аминова Д. Интернет журналистикаси илмий қарашларининг тараккиёт тенденциялари// “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий методик электрон журнал. — Тошкент. 2017. — № 1. — 250 б.
4. Amira Firdaus. Media globalization and digital journalism in Malasiya: Network Newswork. — New York: Routledge, 2018. — 325 p.
5. Arvind Kumar. Digital Media and Weblog Journalism. — Anmol Publications, 2011. 312 p; Arvind Kumar. Multimedia Journalism. — Anmol Publications, 2011. — 296 p; Andy Bull. Multimedia Journalism. A Practical Guide. — London and New York: Routledge, 2010. — 295 p.
6. Белоус А., Игошина О. Современная интернет-журналистика в системе массовых коммуникаций. — URL: [http://journal.mrsu.ru /wp-content/uploads/2013/11/Belous_statya.pdf](http://journal.mrsu.ru/wp-content/uploads/2013/11/Belous_statya.pdf)
7. Белоус А., Игошина О. Современная интернет-журналистика в системе массовых коммуникаций. — URL: http://journal.mrsu.ru /wp-content/uploads/2013/11/Belous_statya.pdf

8. Bradshaw Paul. *The online journalism handbook: Skills to Survive and Thrive in the Digital Age*. Second edition. — London; New York: Routledge, 2017. — 368 p.
9. Гасумова С.Е. Информационные технологии в социальной сфере. Учеб. пособие. — М.: Дашков и К, 2015. — 328 с.
10. Градюшко А. А. Социальные медиа как инструмент современной интернет-журналистики. // Веснік БДУ. Сер. 4. — 2012. № 2. — С.69–73.
11. David A.Craig. *Excellence in Online Journalism. Exploring Current Practices in an Evolving Environment*. — California, London, New Delhi, Pekin; Sage Publications Inc, 2011. —179 p.
12. Deuze M. Online journalism: modelling the first generation of news media on the World Wide Web // First Monday 6 (10), 2011. — URL: <http://firstmonday.org/htbin/cgiwrap/bin/ojs/index.php/fm/article/view/893/802>
13. Dimitrova Daniela., Neznanski Matt (2006) Online journalism and the war in cyberspace: a comparison between US and international newspapers// Journal of Computer-Mediated Communication 12 (1). — URL: <http://jcmc.indiana.edu/vol12/issue1/dimitrova.html>
14. Don Heider, John Thomas. *A practical Guide to Digital Journalism Ethics*. — Loyola University Chicago Center for Digital Ethics and Policy, 2014. — 367 p.
15. Javier Díaz Noci. A history of journalism on the internet: a state of the art and some methodological trends. // Revista internacional de Historia de la Comunicación, № 1, Vol.1, año 2013, pp. 253–272.
16. Jones Janet, Lee Salter. *Digital Journalism*. — Los Angeles, London, New Delhi, Singapore, Washington DC: Sage Publications Ltd, 301 p.
17. Жизнь пользователей Интернета в Китае. Газета «Женьминь Жибао он-лайн». — URL: <http://russian.people.com.cn/31517/4252610.html> (Дата обращения –10.11.14).
18. Иванова Е.Н. Профессионализация интернет-журналистики в блогосфере: Автoref. дисс. на соис.уч.степ.канд.соц.наук. — М., 2011. — 26 с.
19. Калмыков А.А., Коханова Л.А. *Интернет-журналистика. Теоретические основы*. Академический учебник. — Москва, 2018. — 370 с.
20. Ким М.Н. Роль Интернета в модификации традиционных масс медиа / «Настоящее и будущее социальных технологий. Социальные технологии XXI века: инновация и реальность» / Материалы IX международной научно-практ. конф. — СПб, 2012. — С.331–334.
21. Количество интернет-пользователей в Китае превысило 900 млн. <https://regnum.ru/news/it/2966894.html>
22. Кульчицкая Д. Развитие Интернета и онлайн-СМИ в Великобритании. <https://en.ppt-online.org/113268>
23. Қосимова Н. Интернет журналистиканинг технологик асослари. — Т., 2012. — 121 б.
24. Quinn S., Filak V. *Convergent Journalism: an introduction*. Focal Press, Burlington, Mass, 2005. — 219 p.
25. Ligimol Fernando. *Digital Journalism*. — Global Vision Publishing House; 1 edition, 2018. — 176 p.
26. Маркина Л.В. Средства массовой информации в обучении межкультурной коммуникации. — Бел-я., 2012. — С. 32-33.

27. Матякубов А.Д. Влияние Интернет-журналистики на преобразования СМИ Узбекистана // Журналистский ежегодник. — 2012. — № 1. — С.99-102.
28. Mitchelstein E., Boszkowski P. Between tradition and change: A review of recent research on online news production. *Journalism: Theory, Practice and Criticism*, 2009.10 (5). — P. 562—586; Mitchelstein E., Boczkowski P. Online news consumption research: An assessment of past work and an agenda for the future. *New Media and Society*, 12(7), — pp. 1085—1102.
29. Муратова Н.Ф. Ўзбекистон Интернет нашрлари: ривожланиш йўналишлари ва ижод технологиялари. — Т., 2015. — 112 б.
30. Раскладина М.К. Интернет как информационная среда и особенности работы в эпоху новых медиа // *Educational Technology and Society*. — 2004. — № 7 (2) — С.247-256.
31. Рашидова Д. Тенденции развития веб-ресурсов печатных СМИ Узбекистана / Медиафорум: «Роль современных информационно-коммуникационных технологий в деятельности печатных СМИ и перспективы развития Интернет-ресурсов страны». — Т., 2007. — С.55.
32. Рашидова Д., Муратова Н. Интернет-журналистика. — Т.: Журналистларни қайта тайёрлаш халқаро жамоатчилик маркази, 2007. — 132 б.
33. Рашидова Д. Информационные технологии и интерактивная интернет-журналистика. — Т., 2003. — С.5.
34. Siapera Eugenia, Andreas Veglis. The handbook of Global Online Journalism. First Edition, 2012. — 528 p.
35. Steen Steenson. Online journalism and the promises of new technology. A critical review and look ahead. // *Journalism Studies*. — 2011. — № 12 (3). — pp. 311-327.
36. Tapas Ray. Online journalism. A Basic Text. — Foundation Books, Cambridge University Press India Pvt. Ltd, 2006. — 266 p.
37. Ўзбекистонда интернет хизматидан фойдаланувчилар сони 22,1 миллиондан ошди. — URL: <https://daryo.uz/k/2020/12/11/ozbekistonda-internet-foydalanuvchilari-soni-221-milliondan-oshdi/>

References

1. Aditya Sengupta. *Electronic Journalism: Principles and Practice*, Authorpress, 1st edition, 2006, 300 p; Vivek Sehgal. *Editing for Print and Electronic Media: Trends, Ethics and Laws*, Cyber Tech Publications, 2008, 272 p.
2. Alimov B. *Jahon media makonida mamlakat imijini shakllantirish imkoniyatlari va jurnalistika mahorati masalalari. Axborot xizmatlari xodimlari, OAV vakillari, jurnalistika fakultetida tahsil olayotgan talabalar uchun qo'llanma* (Issues of opportunities and journalistic skills to form the image of the country in the world media space. A guide for employees of information services, media representatives, students studying at the Faculty of journalism), Toshkent, 2015, pp. 84—85.
3. Aminova D. “*O'zbekistonda xorijiy tillar*” ilmiy metodik elektron jurnal, Toshkent, 2017. No. 1, 250 p.
4. Amira Firdaus. *Media globalization and digital journalism in Malasiya*, Network Newswork, New York: Routledge, 2018, 325 p.
5. Arvind Kumar. *Digital Media and Weblog Journalism*. Anmol Publications, 2011. 312 p; Arvind Kumar. *Multimedia Journalism*, Anmol Publications, 2011, 296 p; Andy Bull. *Multimedia Journalism. A Practical Giude*, London and New York: Routledge, 2010, 295 p.

6. Belous A., Igoshina O. *Sovremennaya internet-jurnalistika v sisteme massovyh kommunikatsiy, avialable at: http://journal.mrsu.ru/wp-content/uploads/2013/11/Belous_statya.pdf*
7. Belous A., Igoshina O. *Sovremennaya internet-jurnalistika v sisteme massovyh kommunikatsiy, avialable at: : http://journal.mrsu.ru/wp-content/uploads/2013/11/Belous_statya.pdf*
8. Bradshaw Paul. *The online journalism handbook: Skills to Survive and Thrive in the Digital Age*, Second ed, London; New York: Routledge, 2017, 368 p.
9. Gasumova S.E. *Informatsionnye texnologii v sotsialnoy sfere* (Information technologies in the social sphere), Moscow: Dashkov i K, 2015, 328 p.
10. Gradyushko A. A. *Vesnik BDU*, vol. 4, 2012. No. 2, pp. 69-73.
11. David A.Craig. *Excellence in Online Journalism. Exploring Current Practices in an Evolving Environment*, California, London, New Delhi, Pekin; Sage Publications Inc, 2011, 179 p.
12. Deuze M. *Wide Web, First Monday*, No. 6 (10), 2011, avialable at: <http://firstmonday.org/htbin/cgiwrap/bin/ojs/index.php/fm/article/view/893/802>
13. Dimitrova Daniela, Neznanski Matt, *Journal of Computer-Mediated Communication*, 2006, No.12 (1), avialable at: <http://jcmc.indiana.edu/vol12/issue1/dimitrova.html>
14. Don Heider, John Thomas. *A practical Guide to Digital Journalism Ethics*, Loyola University Chicago Center for Digital Ethics and Policy, 2014, 367 p.
15. Javier Díaz Noci. *Revista internacional de Historia de la Comunicación*, No. 1, vol.1, 2013, pp. 253-272.
16. Jones Janet, Lee Salter. *Digital Journalism*, Los Angeles, London, New Delhi, Singapore, Washington DC: Sage Publications Ltd, 301 p.
17. *Jizn' polzovateley Interneta v Kitae. Gazeta «Jenmin Jibao on-layn»*, available at: <http://russian.people.com.cn/31517/4252610.html>
18. Ivanova E.N. *Professionalizatsiya internet - jurnalistiki v blogosfere* (Professionalization of Internet journalism in the blogosphere), Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 2011, 26 p.
19. Kalmykov A.A. Koxanova L.A. *Internet journalism*, Akademicheskiy uchebnik, Moscow, 2018, 370 p.
20. Kim M.N. *Rol' Interneta v modifikatsii traditsionnyx mass media / «Nastroyschee i buduschee sotsialnyx texnologiy. Sotsialnye texnologii XXI veka: innovatsiya va realnost»*, (IX international scientific-practical conference), SPb, 2012, pp.331-334.
21. *Kolichestvo internet-polzovateley v Kitae prevysilo 900 mln*, available at: <https://regnum.ru/news/it/2966894.html>
22. Kulchitskaya D. *Razvitiie Interneta va onlayn-SMI v Velikobritanii*, available at: <https://en.ppt-online.org/113268>
23. Qosimova N. *Internet jurnalistikating texnologiya asoslari* (Technology fundamentals of Internet journalism), Tashkent, 2012, 121 p.
24. Quinn S., Filak V. *Convergent Journalism: an introduction*, Focal Press, Burlington, Mass, 2005, 219 p.
25. Ligimol Fernando. *Digital Journalism*, Global Vision Publishing House, 1 st edition, 2018, 176 p.

26. Markina L.V. *Sredstva massovoy informatsii v obucheni mejkulturnoy kommunikatsii* (Mass media in teaching intercultural communication), Bel-ya., 2012, pp. 32-33.
27. Matyakubov A.D. *Jurnalistskiy ejegodnik*, 2012, No. 1, pp. 99—102.
28. Mitchelstein E., Boszkowski P. *Between tradition and change: A review of recent research on online news production. Journalism: Theory, Practice and Criticism*, 2009.10 (5), pp. 562–586; Mitchelstein E., Boczkowski P. *Online news consumption research: An assessment of past work and an agenda for the future. New Media and Society*, 12(7), pp.1085–1102.
29. Muratova N.F. O'zbekiston Internet nashrlari: rivojlanish yo'nalishlari va ijod texnologiyalari (*Internet publications of Uzbekistan: development directions and technologies of creativity*), Tashkent, 2015, 112 p.
30. Raskladina M.K., *Educational Technology and Society*, 2004, No. 7 (2), pp. 247–256.
31. Rashidova D. *Tendensii razvitiya veb-resursov pechatnyx SMI Uzbekistan*, Mediaforum: «*Rol sovremennoy informatsion-kommunikacionnyx texnologiy v deyatelnosti pechatnyx SMI va perspektivy razvitiya Internet-resursov strany*» (Trends in the development of web resources of print media in Uzbekistan / Media Forum: "The role of modern information and communication technologies in the activities of print media and prospects for the development of the country's Internet resources."), Tashkent, 2007, p. 55.
32. Rashidova D., Muratova N. *Internet jurnalistika* (Internet journalism), Jurnalistlarni qayta tayyorlash: jamoatchilik markazi, Tashkent, 2007, 32 p.
33. Rashidova D. *Informatsionnye texnologii va interaktivnaya Internet-jurnalistika* (Information technology and interactive online journalism), Tashkent, 2003.
34. Siapera Eugenia, Andreas Veglis. *The handbook of Global Online Journalism*, First Edition, 2012, 528 p.
35. Steen Steenson. *Journalism Studies*, 2011, No.12 (3), pp. 311–327.
36. Tapas Ray. *Online journalism. A Basic Text*, Foundation Books, Cambridge University Press India Pvt. Ltd, 2006, 266 p.
37. O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22,1 milliondan oshdi, available at: <https://daryo.uz/k/2020/12/11/ozbekistonda-internet-foydalanuvchilari-soni-221-milliondan-oshdi/>